





2022- yil yanvar-mart oylari uchun Namangan viloyatidagi qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyatida jami **1145,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **106,5 %** ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar- mart oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

2022- yil yilning yanvar-mart oylarida ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2427** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **23** taga oshdi.



Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		Jamiga nisbatan ulushi % 01.01.2022
	01.04.2021- yil	01.04.2022- yil	
Namangan viloyati	2404	2427	100,0
Namangan sh.	757	724	29,7
tumanlar:			
Mingbuloq	78	79	3,3
Kosonsoy	270	269	11,1
Namangan	142	124	5,1
Norin	134	136	5,6
Pop	104	125	5,2
To'raqo'rg'on	106	109	4,5
Uychi	213	237	9,8
Uchqo'rg'on	154	177	7,3
Chortoq	167	170	7
Chust	179	174	7,2
Yangiqo'rg'on	100	103	4,2




Ma'lumot uchun: Viloyatdagi soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Namangan shahri (29,7 %), Kosonsoy tumani (11,1 %) va Uychi (9,8 %) tumanlarida, hamda eng kam ulushni Mingbuloq tumani (3,3 %), To'raqo'rg'on tumani (4,5 %), Yangiqo'rg'on tumani (4,2 %) Pop tumani (5,2 %), ni qayd etildi.



Joriy yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **81,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **25,8** mlrd. so'mga ko'paygan bo'lib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 134,6 % ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Namanagan shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **60,3 %**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

■ 2022- yil yanvar-mart


■ 2021- yil yanvar-mart

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022- yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **67,2 % ga** to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan **10,7 mlrd. so'mga** ortdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan **105,0 %** ni tashkil etgan holda **76,9 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.





Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **25,8 %** ni tashkil etdi yoki **295,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **104,6 %** ni tashkil etdi.






Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 43,4 mlrd. so'm yoki 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 57,2 % ga qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 1101,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 110,3 % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda 3,8 % va 96,2 % ni tashkil etdi.

IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd. so'mda)





**Hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari
2022- yil yanvar-mart oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Namangan viloyati	1145,1	43,4	100	1101,7	100
Namangan sh.	329,2	3,5	8,1	314,5	28,5
tumanlar:					
Mingbuloq	34,6	5,1	5,1	43,1	3,9
Kosonsoy	105,8	9	8,9	84,9	7,7
Namangan	85,2	7,4	7,4	93	8,4
Norin	55,7	5,1	5	48,4	4,4
Pop	78,6	31,1	31,6	74	6,7
To'raqo'rg'on	60,1	5,8	5,7	60,7	5,5
Uychi	105,1	9,7	9,6	116,2	10,7
Uchqo'rg'on	69,7	4,4	4,3	64,8	5,9
Chortoq	97,6	4,1	4,2	82	7,4
Chust	58,2	5,1	5	58,1	5,3
Yangiqo'rg'on	65,3	5,1	5,1	62	5,6

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da
Namangan viloyati	1145,1	106,5	100,0
Namangan sh.	329,2	114,7	28,7
tumanlar:			
Mingbuloq	34,6	171,1	3,0
Kosonsoy	105,8	100,2	9,2
Namangan	85,2	102,5	7,4
Norin	55,7	126,4	4,9
Pop	78,6	86,0	6,9
To'raqo'rg'on	60,1	115,2	5,3
Uychi	105,1	129,2	9,2
Uchqo'rg'on	69,7	74,5	6,1
Chortoq	97,6	116,6	8,5
Chust	58,2	80,6	5,1
Yangiqo'rg'on	65,3	108,6	5,7

2022- yil yanvar-mart oylarida boshqa hududlarga nisbatan eng katta hajm Namangan shahar (329,2 mlrd. so'm) Kosonsoy (105,8 mlrd.so'm), Uychi (105,1 mlrd. so'm), Chortoq (97,6 mlrd. so'm) Namangan (85,2 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmda hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da)



Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi